O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
UCHQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING

# Q A R O R I

2022 - yil 13 - dekabr 708-6-87-Q/22 Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

**Uchqo‘rg‘on tumanida dam olish kuni yarmarkalarini o‘tkazish joyi va muddatlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 avgustdagi 253-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari”ning 5, 57-bandlariga asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. Uchqo‘rg‘on tumanida dam olish kuni yarmarkalarini o‘tkazish joyi etib “Uchqo‘rg‘on dehqon bozori” belgilansin.

2. Uchqo‘rg‘on tumanida dam olish kuni yarmarkalari haftaning yakshanba kunlari soat 08:00dan 16:00ga qadar tashkil etiladi.

3. Dam olish kuni yarmarkalari hududida savdo o‘rinlari bepul berilsin.

4. Dam olish kuni yarmarkalari hududida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo‘lgan nooziq-ovqat iste’mol tovarlarini sotishga ruxsat etilsin.

5. Uchqo‘rg‘on tuman davlat soliq inspeksiyasi, ichki ishlar bo‘limi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi va boshqa manfaatdor tashkilotlar dam olish kuni yarmarkalarini tayyorlash, o‘tkazish va yopish bo‘yicha zarur tadbirlarni amalga oshirsin.

6. Ushbu qaror “Yorqin hayot” gazetasining navbatdagi sonida rasman e’lon qilinsin hamda bir ish kuni ichida hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

8. Mazkur qarordan norozi shaxslar yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.To‘lamirzayev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **J.N.Rizzayev**